

O'ZBEK PUBLITSISTIK USLUBI SHAKLLANISHIDA BEHBUDIYNING O'RNI

*Yaqubova Oybibi Atabekovna, Urganch innovatsion universiteti
“O’zbek va xorijiy filologiya” kafedrasи o‘qituvchisi*

THE ROLE OF BEHBUDIY IN THE FORMATION OF UZBEK PUBLICISTIC STYLE

*Yakubova Oybibi Atabekovna, teacher of the department of
“Uzbek and foreign philology” of the Urgench Innovation
University*

РОЛЬ БЕХБУДИ В ФОРМИРОВАНИИ УЗБЕКСКОГО ПУБЛИЦИСТИЧЕСКОГО СТИЛЯ

*Якубова Ойбили Атабековна, преподаватель кафедры
“Узбекская и иностранная филология” Ургенчского
инновационного университета*

Annotatsiya: Behbudiy ijodi va faoliyatining davr ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy hayotiga ta’siri yuqoriligi, keyingi yillarda adib ijodi va faoliyati bo'yicha pedagogika, falsafa, tarixshunoslik fan sohalarida ham salmoqli tadqiqotlar yuzaga kelganligining o‘rganilish darajasi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: publitsistik uslub, uslubiy xoslanganlik, leksik-semantik munosabat, ma’nodoshlik, tasviriy vosita, hissiy-ta’siri bo‘yoq, sinonim dublet, adabiy me’yor.

Abstract: The level of study of the high impact of Behbudi’s work and activities on the socio-political and spiritual life of the time, and the fact that in the following years, significant researches on the writer’s work and activity in the fields of pedagogy, philosophy, and historiography have occurred.

Key words: journalistic style, stylistic specificity, lexical-semantic relationship, semantics, visual means, emotional-affective color, synonymous doublet, literary standard.


Аннотация: Уровень изученности свидетельствует о высоком влиянии творчества и деятельности Бехбуди на общественно-политическую и духовную жизнь того времени, а также о том, что в последующие годы произошли значительные исследования творчества и деятельности писателя в области педагогики, философии и историографии.

Ключевые слова: публицистический стиль, стилистическая специфика, лексико-семантическая связь, семантика, изобразительные средства, эмоционально-аффективная окраска, синонимический дублет, литературный стандарт.

KIRISH. Ma'lumki, tilning boshqa uslublari qatorida publitsistik uslub o‘ziga xos o‘ringa ega. Davriy matbuot, ijtimoiy-siyosiy adabiyot, siyosiy nutqlar, kundalik hayotdagi turli dolzarb masalalarni ommabop tarzda tushuntirib beradigan maqolalar publitsistik uslubda yoziladi. Targ‘ibot va tashviqot xarakteriga ega bo‘lgan bu uslubdagi nutq informativ boyligi, aniqligi va ekspressivligi bilan ajralib turadi.

Bu uslub orqali omma bilan doimiy ravishda muloqot olib boriladi va ommaga tezkor axborot yetkazib berish vazifasi bajariladi. Shuningdek, bu uslub omma ongiga ta’sir etishda birlamchi vosita hisoblanadi.

Publitsistika keng ma’noda ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdag'i asar-boyligi, aniqligi va ekspressivligi bilan ajralib turadi.



[https://orcid.org/0009-0009-
3594-0741/print](https://orcid.org/0009-0009-3594-0741/print)

e-mail:
oybibiatabekovna@urgiu.uz

larni o‘z ichiga oladi¹. Hayotning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag‘ishlangan publitsistik maqolalar, felyeton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar, xabarlar publitsistik uslubning yozma turiga mansub asarlardir. Adabiy tilning mazkur funksional uslubida yaratiladigan asarlar muayyan davrda ijtimoiy jamiyatda xalq madaniyati va ma’naviyatining yuksalishi bilan yuzaga keladi, rivojlanadi va takomillashadi. Shuning uchun bu janrning tarixi uzoq bo‘lib, adabiy til taraqqiyotining barcha davrlarida shoir va yozuvchilar, ziylilar mazkur janrga murojaat qilganlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Mazkur uslub muallifning siyosiy faolligi, hozirjavobligi, o‘tkir va ta’sirchan notiqlik xislati, kuchli tashviqot va targ‘ibot xususiyatiga ega bo‘lishi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Davriy matbuotga oid asardagi asosiy g‘oya va mazmunni ifoda qilishda muallif shaxsiy munosabati masalasi alohida ahamiyat kasb etadi, u hayotdagi ijtimoiy-siyosiy voqelikka, muammo sifatida ko‘tarilayotgan masalaga o‘z faolligi bilan munosabat ifodalaydi. Uning voqelikka bo‘lgan munosabati fikrni ifodalashdagi dalillarni keltirishda ham, ularni o‘z dunyoqarashi va estetik tamoyillari asosida mantiqiy tahlil qilish, qiyoslashda ham, Shuningdek, tilning emotsional-ekspressiv, boshqa turli uslubiy vositalaridan foydalanishida o‘zgachalik kasb etadi. Publitsistik asar muallifi hayotiy masalalarni mantiqiy mulohaza, dalil, asoslar bilan tushuntirish, isbotlash bilan birga, o‘quvchini bunga ishontirish, uning his-tuyg‘ulariga ta’sir etishni ham bosh maqsad qilib qo‘yadi va til imkoniyatlaridan shunga mos ravishda foydalanadi.

Adabiy til funksional uslublarining barchasi ham markaziy va chegaralangan belgisi bilan biri ikkinchisidan farqlanadi. Zotan, obrazlilik badiiy uslubning markaziy belgisi hisoblanar ekan, mana shu belgiga ko‘ra badiiy uslub ilmiy hamda rasmiy uslubdan o‘ziga xoslik kasb etadi. Bu kabi ilmiy uslubda ham muhim chegara holatlar mavjudki,

ilmiy nutq va uslubda ham obrazlilik kuzatilishi mumkin. Bunday holat ilmiy-publitsistik uslubga xosligi tushuniladi. Xuddi shu kabi, ilmiy uslub bilan publitsistik uslub keng ommaga qaratilish belgisiga ko‘ra o‘zaro qarama-qarshi munosabatda bo‘ladi.

MUHOKAMA. Publitsistik uslubda bunday belgining mavjudligi, ilmiy uslubning markaziy nuqtasida esa bunday belgining yo‘qligi ularni o‘zaro farqlash imkonini beradi. Lekin shunday ilmiy uslubga xos asarlar borki, ularda ilmiy yutuqlarni ommaga singdirish asosiy vazifa qilib qo‘yiladi. Bunday holat ilmiy uslub bilan publitsistik uslubni bir-biriga yaqinlashtiradi, ular orasida yuqoridagi belgi munosabatini qisqartiradi. Bunday oraliq holatni barcha uslublarning o‘zaro zidlanishida kuzatish mumkin. Jumladan, publitsistik uslub bilan badiiy uslub o‘rtasida, rasmiy uslub bilan ilmiy uslub o‘rtasida, og‘zaki-so‘zlashuv uslubi bilan publitsistik uslub o‘rtasida bunday holat namoyon bo‘lishi mumkin. Anglashiladiki, adabiy tilning vazifaviy uslublari bir-biri bilan o‘zaro munosabatda bo‘lib, markaziy va chegara belgilarini o‘zida aks ettiradi. Shu bois, u yoki bu uslubning muhim belgilarini xarakterlashda, asosan ularning markaziy belgilariga urg‘u beriladi. Bu fikrlarni umumlashtirgan holda, publitsistik asarlarni boshqa uslub janrlaridan o‘zaro farqlashda ularning markaziy va chegara belgilariga tayanish lozim bo‘ladi. Demakki, publitsistik uslubdagi janrnning markaziy belgisi – ommaga, xalqqa qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

NATIJALAR. Bu yo‘nalishdagi izlanishlarda matbuot nashrlari sarlavhalarining struktur-grammatik va uslubiy xususiyatlarini yoritishga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham ko‘zga tashlanadi. Jumladan, A.Shomaqsudov, I.Toshaliyev, P.Rustamovlarning ilmiy tadqiqotlarida² gazeta sarlavhalarining vazifasi, struktur-grammatik xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lsa, B.Yo‘ldoshev, B.Mirzayevlarning maqolalarida³ gazeta sarlavhalarining uslubiy xususiyatlari o‘rganilgan.

¹ Розенталь Д. Практическая стилистика русского языка. – Москва, 1974. – С.21; Шомақсудов А. Ўзбек адабий тили стиллари ҳақида. – Тошкент: ТошДУ илмий асарлари, 1970. – Б. 227-240; Тоғаев О. Ўзбек бадиий публицистикаси. – Тошкент: Фан, 1973. –168 б.

² Шомақсудов А., Тошалиев И., Рустамов П. Сарлавҳа ва унинг функцияси // Ўзбек тилшунослиги масалалари. ТошДУ асарлари. №475. – Тошкент, 1975. – Б. 149-166.

³ Йўлдошев Б., Мирзаев Б. Ўзбек тилида фразеологизм сарлавҳаларининг стилистик хусусиятлари ҳақида (матбуот масалалари асосида) // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари. СамДУ асарлари. – Самарқанд, 1982. – Б.109-114.

Keyinchalik publitsistik uslub tilining lisoniy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan dissertatsion ishlar ham yuzaga kela boshladi. Jumladan, A.Abdunazarovning⁴ nomzodlik ishida "Mushtum" jurnali tilining leksik, frazeologik xususiyatlari o'rganilgan bo'lsa, B.Turdaliyev⁵ tomonidan 1905 – 1917- yillardagi o'zbek vaqtli matbuotining morfologik xususiyatlari tadqiq qilindi.

Publitsistik uslub tilining sintaktik xususiyatlari tadqiq etilgan monografik tadqiqotlar sirasiga M.Rahmonovning "Turkiston viloyatining gazeti" tilining sintaktik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotini⁶ kiritish mumkin. Mazkur tadqiqotda gazeta tilidagi aniqlovchi, izofa va fe'lli birikmalar, sodda gap sintaksisi va uning turlari, gap bo'laklari va ularning joylashish o'rni, gapning ajratilgan bo'laklari va qo'shma gap sintaksisi masalalari yoritilgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlari davr adabiy tili, uning funksional uslublaridan biri hisoblangan publitsistik uslub tili D.Ne'matova tomonidan Cho'lpon publitsistik asarlarining lingvistik tahlili⁷ misolida o'rganilgan. Dissertatsiyada eski o'zbek tilidan hozirgi o'zbek adabiy tiliga o'tish jarayoni, shuningdek, hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishida leksik, so'z yasalish, sintaktik me'yorlarning belgilanish jarayoni ilk bor publitsistik asarlar tili misolida tadqiqqa tortilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiyning publitsistik maqolalari yuzasidan olib borgan statistik tahlillarini quyidagicha xulosalaydi: "Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy asarlari XX asr boshlaridagi Turkiston xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi hayoti, tur mush tarzidagi jarayonlarni o'zida aks ettiradi. Ilmiy-tanqidiy maqolalari esa zamonning ilg'or zi yolilari va ma'rifatparvarlari faoliyatidagi eng ko'p ishlatilgan so'z va iboralarni o'zida aks ettiradi. Bu esa adib faoliyatida ijtimoiy-siyosiy

terminologiyaning ma'lum o'rinn tutishidan dalolat beradi"⁸.

O'zbek adabiyoti tarixida ma'rifatparvarlik adabiyotidan keyingi bosqich sifatida maydonga kelgan jadid adabiyoti xalqni ma'rifatli qilib tarbiyalash, jamiyatda yangilanishlarga erishish, vatan va millatni taraqqiyot yo'liga olib chiqish g'oyalarini targ'ib qilishda asosiy vosita bo'lib xizmat qildi. Bu esa, o'z navbatida, ma'rifatchilik va jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy muammolarni aks ettirishga qaratilgan jadid adabiyotida an'anada bo'lgan adabiy tur va janrlarning yangilanishi uchun ham zamin hozirladi. Aynan dramaturgiya va publitsistik janrlarning shakllanganligini jadid davri adabiyotining mahsuli sifatida qayd etish lozim bo'ladi. Mahmudxo'ja Behbudiy mazkur ikki janrda ham barakali ijod qildi.

XULOSA. Umuman olganda, Mahmudxo'ja Behbudiyning publitsistik faoliyati XX asr boshlaridagi yangi o'zbek adabiy tilining shakllanish davriga, til birliklarining me'yorlashishidek murakkab jarayonga, ya ni "eskilik" bilan "yangilik" o'rtasida kurash borayotgan bir davrga to'g'ri keldi. Tildagi me'yoriy ko'rinishlarning tanlana borishi, davr adabiy tilini shakllantirish ishiga M.Behbudiy ham publitsistik asarlarining tili va uslubi orqali sezilarli hissa qo'shdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: Шарқ, 1997.
- Авазов С. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг ижодий мероси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1995.
- Сайдов Ҳ. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг публицистик ва муҳаррирлик фаолияти: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф.. – Тошкент, 2002.
- Абдураҳмонов Ғ. Беҳбудий ва унинг ҳозирги ўзбек адабий тилининг шаклланишидаги хизматлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1995.

⁴ Абдуназоров А. 20-йиллардаги ўзбек адабий тили лексикаси ва фразеологияси тараққиёти: Филол.фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1969. – 22 б.

⁵ Турдалиев Б. 1905-1917 йиллардаги маҳаллий матбуот тилининг морфологик хусусиятлари: Филол.фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1969. – 23 б.

⁶ Раҳмонов М. "Туркiston viloyatining gazeti" тилининг синтaktik хусусиятлари: Филол.фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1971. – 21 б.

⁷ Нематова Д. Чўлпон публицистик асарларининг лингвistik таҳдили: Филол. фанлари номзоди... дисс. – Тошкент, 2004. – 146 б.

⁸ Раҳматова Д. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг лингвistik таълимoti, асарларининг тил ва uslub хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Самарқанд, 2022. -Б.101.